

BYUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmonov Toyirjon Toshtemirovich,

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlari nazoratini takomillashtirishda qonunchilikda ko'rsatilgan tartib-qoidalar hamda jarayonni amalga oshiruvchi electron platformaning maqsad va vazifalari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: byudjet, electron platforma, davlat xaridlari, mijoz, tendir, adolatlilik, usul.

Аннотация: В статье рассматриваются предусмотренные законодательством процедуры, а также цели и задачи электронной площадки, реализующей процесс совершенствования контроля за процессами государственных закупок в бюджетных организациях.

Ключевые слова: бюджет, электронная площадка, государственные закупки, заказчик, тендер, правосудие, метод.

Abstract: The article examines the procedures specified in the legislation and the goals and tasks of the electronic platform that implements the process in improving the control of the processes of state procurement in budget organizations.

Key words: budget, electronic platform, public procurement, customer, tender, justice, method.

Kirish

2019 yildan boshlab Davlat xaridlariga vakolatli organ Moliya vazirligi qilib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash ustuvor vazifa belgilab olindi. Unga muvofiq, korporativ tashkilotlarni davlat xaridlari tizimiga jalb qilinishi va ularni mazkur tizimda amalga oshirilayotgan xaridlarni monitoring o'tkazish nazarda tutildi.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida yirik davlat korxonalari davlat xaridlari tizimi bilan qamrab olindi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni bilan 2022 yil 1 yanvardan elektron tanlash va tender savdolari elektron shaklda amalga oshirish belgilandi. Joriy yilning yanvaridan boshlab shu tizim ishga tushirildi.

Tizimda beshta xarid turi, ya'ni elektron do'kon, auksion savdolari, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari asosida xaridlarni amalga oshiriladi. Bu raqobatli

usul hisoblanadi. Bundan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar faoliyati ham mavjud. Elektron auksion va elektron do‘kon orqali shartnomalar tuzish avtomatlashtirilgan. Bu jarayonda inson omili yo‘q. Keyingi yillarda tizimni to‘liq avtomatlashtirish tizimi ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Davlat xaridi — byudjet mablag‘lari hisobiga hukumat yoki davlat idoralari tomonidan sotib olinadigan, mamlakatda yoki chet ellarda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar. Bunday xarid davlat tomonidan davlatning o‘z ehtiyojlari (mas, uskuna-jihozlar, qurol-yarog‘ sotib olish), aholi iste‘molini ta‘minlash va davlat zaxiralarini (don, oziq-ovqat va b. xaridi) yaratish maqsadlarida amalga oshiriladi. Mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilayotgan sanoat tovarlari va yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishda davlat ma‘lum narxlar belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Moliya vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar hamkorligida mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Davlat xaridlari tizimini rivojlantirish strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Unda tizimni yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlash, shuningdek, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ayol tadbirkorlar, yosh tadbirlarga keng imkoniyat berish borasida qator vazifalar belgilangan.

Byudjet xaridorining huquq va majburiyatlari

Xaridlarni amalga oshirishda byudjet buyurtmachisi quyidagi huquqlarga ega:

- mustaqil ravishda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb qilgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno, sotib olish ob'ekting boshlang'ich narxini belgilash;
- davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida o‘z rasmiy veb-saytida yoki yuqori turuvchi organda, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e‘lon joylashtirish;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilaridan eng yaxshi taklif va tender tanlovini tanlashda davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlaydigan depozit yoki bank kafolatini kiritishni talab qilish;
- xaridlarning barcha ishtirokchilari uchun takliflar berish muddatini uzaytirish;
- xaridlar ishtirokchilari bilan bog‘lanish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ularning takliflarining amal qilish muddatini ma‘lum muddatga uzaytirishni taklif qilish;
- qonun hujjatlariga va u bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlar.

Xarid qilishda byudjet mijozi quyidagilarga majburdir:

- davlat xaridlarini rejalashtirish;
- “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq xaridlar turini tanlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirish;
- davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda SIPga joylashtirish;
- xaridlar ishtirokchilariga ularning xaridlar va davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-qoidalarini to‘g‘risidagi so‘rovlari bo‘yicha tushuntirishlar beradi;
- xaridlar g‘oliblari – ishtirokchilar bilan shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini ta‘minlash;
- davlat xaridlariga mansubligi to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etish;
- moliyalashtirish manbalari va miqdorlari tasdiqlangan taqdirdagina davlat xaridlari to‘g‘risidagi e‘lonlarni davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va ommaviy axborot vositalarida joylashtirish;
- shartnomalari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

Shuningdek, tadbirkorlik sub‘ektlarini to‘liq qamrab olish uchun tizimni yanada takomillashtirish natijasida tadbirkorlik sub‘ektlarining davlat xaridlariga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Davlat xaridlari ochiq landi. Barcha ma‘lumotlar ochiq va shaffofligi ta‘minlandi. Tizimdagi xaridlar ommaviy axborot vositalarida yoritildi. Uni soddalashtirish bo‘yicha davlat buyurtmachilari va ishtirokchilarining bilim ko‘nikmasini oshirish borasida Moliya vazirligining O‘quv markazida elektron platforma yaratildi. Tizim haqida barcha ma‘lumotlar joylangan. Portal O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Davlat xaridlari markaziy axborot portali - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot elektron shaklda yuritilishini, shu jumladan, maxsus axborot portali operatorining (keyingi o‘rinlarda — operator) axborot tizimlari bilan o‘zaro ma‘lumot almashinuvi orqali davlat xaridlarining reja-jadvallari, davlat xaridlari to‘g‘risidagi e‘lonlar, davlat xaridlarining yakunlari to‘g‘risidagi axborot, davlat xaridlari bo‘yicha statistik axborot va boshqa ma‘lumotlarni o‘zining ma‘lumotlar bazasida jamlanishini va ulardan barcha jismoniy va yuridik shaxslarning erkin foydalanishini ta‘minlovchi maxsus elektron platformasi hisoblanadi.

Xulosa

2021 yil 22 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni ham qabul qilindi. Albatta, bu hujjatlar tizim ishini takomillashtirishda muhim huquqiy asosdir. Davlat xaridlari tovar xizmatlarini davlat buyurtmachilari

tomonidan o'z ehtiyojlari uchun pulli asosda xarid qilish hisoblanadi. Oddiy so'z bilan aytganda, har bir davlat buyurtmachisi, ya'ni bu korxonalar bo'ladimi yoki byudjet tashkiloti bo'ladimi, u avvalambor, o'ziga kerakli bo'lgan tovar xizmatlarini xarid qiladi. Davlat xaridlari platformasi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, o'tgan yilning o'zida 147 trillionlik tovarlar shu platforma orqali xarid qilingan. Bu o'tgan yilga nisbatan 12 foizdan ko'pdir. Muhimi, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan shu bozorga qiziqish ko'paygan. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda davlat xaridlarida 99 ming nafar tadbirkor faol qatnashgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 190 ming nafarga yetdi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son qonuni, 22.04.2021
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Adliya vazirligi tomonidan 3299-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan buyrug'i, 07.05.2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020
4. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2021 yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing, 26.01.2022
5. Davlat xaridlarini amalga oshirishda yo'l qo'yilgan qonunbuzilishi holatlari yuzasidan axborot <https://anticorruption.uz/uzc/item/2022/11/24/davlat-xaridlarini-amalga-oshirishdayol-qoyilgan-qonunbuzilishi-holatlari-yuzasidan>
6. Авдюшкина Т.В. Цели и назначение внутреннего аудита механизма государственных закупок. Вестник Московского университета имени С.Ю.Витте. Серия 1. Экономика и управление №4 (27)э 2018.
7. Винокурцева Е.А. Опыт зарубежных стран в осуществлении закупок товаров, работ, услуг: аналитический обзор / Экономика, управление, финансы. Материалы X Международной научной конференции. ООО «Издательство Молодой ученый», 2019 стр 9-17.